PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

IJTIMOIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING KONSTITUTSIYAVIY MAJBURIYATLARI: IJTIMOIY DAVLAT MODELI

Boirov Jamshidjon Ikromjon o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi
mrboirovjamshid@gmail.com
+99895-155-95-56
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20355682

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy davlat nazariyasining tarixiy shakllanishi, ijtimoiy huquqlar konsepsiyasi va ularni ta’minlash borasida davlatning konstitutsiyaviy hamda xalqaro-huquqiy majburiyatlari tahlil qilinadi. Bismark va Beveridj modellariga asoslangan ijtimoiy davlat nazariyasining evolyutsiyasi, T.H Marshallning fuqarolik va ijtimoiy huquqlar haqidagi ta’limoti hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (ICESCR) doirasidagi “minimal asosiy majburiyatlari” konsepsiyasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida “ijtimoiy davlat” maqomining mustahkamlanishi milliy ijtimoiy davlat modelining shakllanish jarayoni nuqtayi nazaridan baholanadi. Maqolada davlatning ijtimoiy huquqlarni hurmat qilish, himoya qilish va ta’minlash majburiyatlari xalqaro-huquqiy standartlar bilan qiyosiy o‘rganilib, ularning milliy qonunchilikda aks etish mexanizmlari nazariy-huquqiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar

ijtimoiy davlat; ijtimoiy huquqlar; konstitutsiyaviy majburiyatlar; ICESCR; minimal asosiy majburiyatlar; Bismark modeli; Beveridj modeli; ijtimoiy himoya.

Abstract

This article analyzes the historical formation of the social state theory, the concept of social rights, and the constitutional and international legal obligations of the state in ensuring those rights. The evolution of the social state theory based on the Bismarck and Beveridge models, T.H. Marshall’s doctrine on citizenship and social rights, and the concept of ‘minimum core obligations’ within the framework of the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (ICESCR) are examined. The consolidation of the “social state” status in Uzbekistan’s new 2023 Constitution is assessed from the perspective of the formation of a national social state model. The article provides a theoretical and legal justification for the state’s obligations to respect, protect and fulfil social rights in accordance with international legal standards, and the mechanisms of their reflection in national legislation.

Keywords

social state; social rights; constitutional obligations; ICESCR; minimum core obligations; Bismarck model; Beveridge model; social protection.

Inson huquqlari tizimida ijtimoiy huquqlarning to‘liq ta’minlanishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlari u yoki bu darajada ijtimoiy davlat modelini amaliyotga joriy etmoqda[1]. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro pakt (ICESCR)

[1]Tursunaliyeva E. I. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi: shakllanishi, nazariy asoslar va modellar // American Journal of Education and Learning. — 2026. — Vol. 4, Issue 1. — P. 225—230. ISSN: 2996-5128.

davlatlardan iqtisodiy holatidan qat'i nazar, ijtimoiy huquqlar bo'yicha "minimal asosiy majburiyatlar"ni bajarishni talab etadi[2].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilgi yangi tahririda davlat "ijtimoiy davlat" sifatida e'tirof etilishi,[3] ijtimoiy adolat va ijtimoiy birdamlik tamoyillarining mustahkamlanishi milliy ijtimoiy davlat modelining konstitutsiyaviy poydevorini shakllantiradi. Ushbu o'zgarish ijtimoiy huquqlarni ta'minlash borasida davlat majburiyatlarining yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy davlat konsepsiyasi va uning huquqiy majburiyatlari bilan bog'liq masalalar O'zbekiston huquqshunosligi doirasida yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda ijtimoiy davlat nazariyasi,[4] uning modellari va ayrim huquqiy jihatlari[5] ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini xalqaro-huquqiy standartlar bilan qiyosiy tahlil qiluvchi ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat modelining konstitutsiyaviy asoslarini xalqaro-huquqiy standartlar bilan qiyosiy tahlil qilish va davlatning ijtimoiy huquqlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarining amalda ijrosi mexanizmlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil va tarixiy-huquqiy metod qo'llanildi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi XIX asr oxirida klassik liberalizmning "minimal davlat" g'oyasi keltirib chiqargan ijtimoiy oqibatlar: kambag'allik, keskin ijtimoiy tengsizlik va ommaviy ijtimoiy xavflarning kuchayishi sharoitida shakllandi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonida bozor mexanizmlari aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qodir emasligi namoyon bo'ldi.

U.S.O'ralova o'zining maqolasida, ijtimoiy davlat deganda "ijtimoiy sohaga ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolarning tengligi ta'minlanadigan, ularning turli tabaqalarga ajralishiga yo'l qo'ymaydigan, umumfarovonlik ta'minlangan jamiyat" tushunilishi keltirib o'tgan[6]. Bunday davlatda asosiy maqsad: jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlash hisoblanadi.

Zamonaviy ijtimoiy davlatning ilk institutsional ko'rinishlaridan biri sifatida Bismark davridagi Germaniyadagi majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi e'tirof etiladi. Bismark modelida kasallik sug'urtasi (1883), baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta (1884) va keksalik pensiyalari (1889) ketma-ket joriy etildi. Buyuk Britaniyada shakillangan Beveridj modeli esa soliqlar hisobidan moliyalashtiriladigan va "beshta asosiy salbiy holat"lar: kambag'allik, kasallik, savodsizlik, uy-joy yetishmasligi va ishsizlikka qarshi qaratilgan universal ijtimoiy ta'minot modelini taklif etdi.

T.H.Marshall fuqarolik huquqlari rivojlanishini uch bosqichda: fuqarolik, siyosiy va ijtimoiy huquqlar sifatida talqin qilib, ijtimoiy huquqlarni jamiyatda "munosib hayot darajasi"ni ta'minlovchi konstitutsiyaviy institut darajasiga ko'tardi[7]. Bu tasnif keyinchalik ijtimoiy davlat modellarini qiyosiy o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng ijtimoiy davlat rivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichi uni konstitutsiyaviy kafolat darajasida mustahkamlash boshlandi. Urushdan ko'p o'tmay, ijtimoiy davlat

---

[2]International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (ICESCR). UN General Assembly Resolution 2200A (XXI), 16 December 1966, Art. 2(1). — [Elektron resurs]: https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/cescr.aspx

[3]O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel tahriri), 1-modda. — [Elektron resurs]: https://lex.uz/docs/-6445145

[4]O'ralova U. S. Ijtimoiy davlat tushunchasi, mazmun va mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari // Journal of Multidisciplinary Bulletin. — 2024. — Vol. 7, Issue 10. — P. 18—23. ISSN: 2984-6722.

[5]Ernazarov D. Ilmiy adabiyotlarda "Ijtimoiy davlat" tushunchasi va uning xususiyatlari // Ma'naviy tarbiya va targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta'sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Afzalzoda books nashriyoti, 2023. — B. 292.

[6]O'ralova U. S. Ko'rsatilgan maqola. — P. 19.

[7]Marshall T. H. Citizenship and Social Class. — Cambridge: Cambridge University Press, 1950. P. 10-11.

konstitutsiyaviy kafolat sifatida Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya konstitutsiyalarida, 1970-yillarda esa Ispaniya, Portugaliya va Shvetsiyada mustahkamlandi.

Daniyalik olim Esping-Andersen 1990-yilda taklif etgan tasnifga ko‘ra ijtimoiy davlatning uch asosiy modeli ajratiladi[8]. E.I Tursunaliyevaning tadqiqotida ushbu modellar quyidagicha tavsiflanadi:

Liberal model. Bu modelda davlatning ijtimoiy sohaga aralashuvi minimal darajada bo‘lib, asosan AQSh va Buyuk Britaniyada qo‘llaniladi. Ijtimoiy yordam va xizmatlar asosan xususiy sektor tomonidan ko‘rsatiladi, davlat esa faqat ijtimiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanadi. Bozor munosabatlariga katta e’tibor qaratiladi.

Korporativ (kontinental) model. Germaniya, Avstriya va Belgiyada keng qo‘llaniladigan bu modelda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy xarajatlar davlat byudjeti hamda ish beruvchi va xodimlarning sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtiriladi.

Skandinaviya modeli. Bu modelda davlatning ijtimoiy sohaga aralashuvi maksimal darajada bo‘ladi. Shvetsiya, Norvegiya va Daniya davlatlari ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarni keng miqyosda bepul taqdim etadi. Bu ishlarni muvofiqlashtirish asosan mahalliy boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi[9].

Rossiyalik tadqiqotchi O.V.Rodionova ta’kidlaganidek, “ijtimoiy davlat teng va samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan davlat bo‘lib, u inson va fuqaro huquqlarining amalda, qulay va samarali tizimlar mavjudligida namoyon bo‘lishi kerak. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, kam ta’minlanganlarni qo‘llab-quvvatlash bularning hammasi bir tizimning alohida elementlari hisoblanadi”[10]. Ushbu ta’rif ijtimoiy davlat modellarini baholashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22-26-moddalarida ijtimoiy ta’minot, ta’lim va sog‘liqni saqlashga oid huquqlar belgilanib, keyinchalik ICESCR bu huquqlarning yuridik jihatdan jamlangan holda tartibga soldi. ICESCR ijtimoiy huquqlarni “bosqichma-bosqich” amalga oshirishni nazarda tutsa-da, davlatlar zimmasiga “minimal asosiy majburiyatlar”ni hech qanday cheklovlarsiz bajarish majburiyatini yuklaydi[11].

Xalqaro-huquqiy doktrinalarda davlatning ijtimoiy huquqlar bo‘yicha majburiyatlari uch turga ajratiladi: hurmat qilish, himoya qilish va ta’minlash[12]. Hurmat qilish majburiyati davlat tomonidan fuqarolarning ijtimoiy huquqlarni cheklovchi yoki buzuvchi qarorlar qabul qilmaslikni bildiradi. Himoya qilish majburiyati boshqaruv subyektlari tomonidan ijtimoiy huquqlar buzilishining oldini olish uchun huquqiy mexanizmlar yaratishni talab qiladi. Ta’minlash majburiyati esa davlatning ijtimoiy huquq normalarini ishlab chiqishi va ularni samarali amalga oshirishini o‘z ichiga oladi.

BMT Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasi “minimal asosiy majburiyatlar” doirasiga oziq-ovqat, boshlang‘ich sog‘liqni saqlash, uy-joy va boshlang‘ich ta’lim kabi minimal ijtimoiy standartlar kirishini belgilagan[13]. Jahon banki va boshqa xalqaro institutlar bu yondashuvni

---

[8]Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. — Princeton: Princeton University Press, 1990. — P. 26—29.

[9]Tursunaliyeva E. I. Ko’rsatilgan asar. — P. 226.

[10]Родионова О. В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства // Lex Russica. — 2015. — No. 1 (Том XCVIII). — С. 28—41.

[11]Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 3: The Nature of States Parties’ Obligations (Art. 2, Para. 1). UN Doc. E/1991/23, 1990. — Para. 10.

[12]Tobin J. The Right to Health in International Law. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — P. 245—260.

[13]Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 14: The Right to the Highest Attainable Standard of Health (Art. 12). UN Doc. E/C.12/2000/4, 11 August 2000. — Para. 43—44.

rivojlantirgan holda, ijtimoiy huquqlarni ta’minlashda davlat majburiyatlarining turli darajalarini ajratib ko‘rsatadi[14].

ICESCR qo‘mitasining talqiniga ko‘ra, resurslar cheklangan sharoitda ham “minimal asosiy majburiyatlar”dan kam miqdorda ta’minlash mumkin emas. Bunday cheklash faqat istisno holatlarda, vaqtinchalik va diskriminatsion bo‘lmagan tarzda belgilanishi mumkin[15].

O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining 1-moddasida davlat “boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” sifatida ta’riflanadi. Ushbu norma demokratiya, qonuniylik, inson huquqlarining ustuvorligi va fuqarolik jamiyati bilan uzviy bog‘langan holda mustahkamlangan bo‘lib, milliy ijtimoiy davlat modelining konstitutsiyaviy poydevorini tashkil etadi.

Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi, barcha fuqarolarning tengligi, ijtimoiy adolat tamoyillarining e’tirof etilishi bilan birga, davlat zimmasiga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari: nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlanganlar, boquvchisini yo‘qotganlar, bolalar va keksalar uchun alohida ijtimoiy kafolatlar yaratish majburiyati yuklatilgan. Xususan, ijtimoiy ta’minotga oid 46-moddada keksalik, nogironlik va boquvchisini yo‘qotish hollarida pensiya hamda nafaqalar kafolatlanib, ularning miqdori rasmiy belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan past bo‘lmasligi belgilangan.

Konstitutsiyaning 48-moddasida esa tibbiy xizmat va sog‘liqni saqlash huquqini alohida kafolatlaydi. Bu normalar ICESCR talablari bilan bog‘langan bo‘lib, davlatning ijtimoiy huquqlarni ta’minlash bo‘yicha xalqaro majburiyatlari milliy konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanganini ko‘rsatadi. 2023-yilgi konstitutsiyaviy o‘zgarishlar asosida ijtimoiy himoya tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarini joriy etish va “Ijtimoiy himoya milliy agentligi”ni tashkil etish kabi institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlar ijtimoiy davlat konsepsiyasini deklarativ norma darajasidan, uni ijtimoiy siyosatning asosiy normativ asosiga aylantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Xulosa

Ijtimoiy davlat nazariyasi Bismark va Beveridj modellaridan boshlab, T.H. Marshallning fuqarolik nazariyasi hamda ICESCR doirasidagi «minimal asosiy majburiyatlar» konsepsiyasigacha bo‘lgan murakkab evolyutsiyani bosib o‘tgan. U.S O‘ralova va E.I Tursunaliyeva tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, hozirgi kunda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari u yoki bu darajada ijtimoiy davlat modelini amaliyotga joriy etmoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi konstitutsiyaviy maqomi, asosiy ijtimoiy huquqlar va aholining muhtoj qatlamlari uchun maxsus kafolatlarning 2023-yilgi Konstitutsiyada mustahkamlanishi milliy ijtimoiy davlat modelining barqaror shakllanayotganini ko‘rsatadi. Davlatning ijtimoiy huquqlarni hurmat qilish, himoya qilish va ta’minlash majburiyatlarini xalqaro standartlar asosida, ijtimoiy siyosatning manzilli amalga oshirish va ijtimoiy dasturlar samaradorligini baholash mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoiy davlat modelini yanada mustahkamlashning zarur shartlari hisoblanadi.

[14]World Bank. Minimum Core Obligations of Socio-Economic Rights. — Washington DC: World Bank, 2018. — [Elektron resurs]: https://www.worldbank.org

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel tahriri). — [Elektron resurs]: https://lex.uz/docs/-6445145
2. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights (ICESCR). UN General Assembly Resolution 2200A (XXI), 16 December 1966. — [Elektron resurs]: https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/cescr.aspx
3. Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 3: The Nature of States Parties’ Obligations. UN Doc. E/1991/23, 1990.
4. Committee on Economic, Social and Cultural Rights. General Comment No. 14: The Right to the Highest Attainable Standard of Health. UN Doc. E/C.12/2000/4, 11 August 2000.
5. Marshall T. H. Citizenship and Social Class. — Cambridge: Cambridge University Press, 1950. — 92 p.
6. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. — Princeton: Princeton University Press, 1990. — 248 p.
7. Tobin J. The Right to Health in International Law. — Oxford: Oxford University Press, 2012. — 454 p.
8. Родионова О. В. Проблемы развития теории и практики современного социального государства // Lex Russica. — 2015. — No. 1 (Том XCVIII). — С. 28—41.
9. O‘ralova U.S. Ijtimoiy davlat tushunchasi, mazmun va mohiyati va tarixiy rivojlanish bosqichlari // Journal of Multidisciplinary Bulletin. — 2024. — Vol. 7, Issue 10. — P. 18—23. ISSN: 2984-6722. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14095198
10. Tursunaliyeva E.I. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi: shakllanishi, nazariy asoslar va modellar // American Journal of Education and Learning. — 2026. — Vol. 4, Issue 1. — P. 225—230. ISSN: 2996-5128. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18288714
11. Ernazarov D. Ilmiy adabiyotlarda «Ijtimoiy davlat» tushunchasi va uning xususiyatlari // Ma’naviy tarbiya va targ‘ibotning zamonaviy texnologiyalari hamda ta’sirchan usullari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Afzalzoda books nashriyoti, 2023. — B. 292.
12. World Bank. Minimum Core Obligations of Socio-Economic Rights. — Washington DC: World Bank, 2018. — [Elektron resurs]: https://www.worldbank.org